



## **YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI BELGILARI, KELIB CHIQISH SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORALARI.**

***Usmonova Davlatxon Sotvoldiyevna***

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

*“Terapevtik fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi*

**Annotation:** Ushbu maqolada yurak ishemik kasalliklari belgilari, kelib chiqish sabablari, davolash va oldini olish choralari haqida aytib o’tilgan va muallif tomonidan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Stenokardiya, miokard infarkt, ateroskleroz, kardioskleroz, kardiolog, toj arteriya

## **SYMPTOMS, CAUSES, TREATMENT AND PREVENTION OF ISCHEMIC HEART DISEASE.**


**Annotation:** This article discusses the symptoms, causes, treatment and prevention of ischemic heart disease, and the author gives recommendations.

**Keywords:** Angina, myocardial infarction, atherosclerosis, cardiosclerosis, cardiologist, coronary artery

**Yurakning ishemik kasalligi** — yurak-tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligikga, asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab bo‘ladi. Yurakning ishemik kasalligikga stenokardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti,



infarktdan keyingi kardioskleroz, aritmik tur va yurak yetishmovchiligi kiradi. Yurakning ishemik kasalligik. muntazam rivojlanib boruvchi og‘ir yurak xastaligi hisoblanadi. Yosh ulg‘aygan sari kasallik uchrashi ko‘payadi.



Yurakning ishemik kasalligi klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zo‘rayib, dam bosilib turadi. Ko‘pincha yurakning ishemik kasalligi, zimdan kechib, bemor o‘zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradi. Odatda, Yurakning ishemik kasalligik.ning dastlabki klinik belgilaridan biri — zo‘riqish stenokardiyasi xuruji bo‘lib, jismoniy ish bajarilganda ro‘y beradi. Keyinchalik kasallik uzoq davom etishi, hatto yillab cho‘zilishi mumkin. Ko‘pincha zo‘riqish stenokardiyasiga birmuncha vaqtdan keyin tinch holatda ham kuzatiladigan tinch holat stenokardiyasi hurujlari qo‘shilishi mumkin.

Yurakning ishemik kasalligining kelib chiqishi va rivojlanishiga kishilarning yoshi, kasallikka irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kam harakat (gipodinamiya), jismoniy hamda



ruhiy zo'riqish va boshqalar sabab bo'ladi. Kashandalar o'rtasida Yurakning ishemik kasalligik.ning nisbatan ko'p uchrashi kuzatilgan.

Yurakning ishemik kasalligining rivojlanishida, ayniqsa, xolesterinning roli katta. Qonda xolesterin miqdorining oshib ketishi aterosklerozga sabab bo'ladi va bu Yurakning ishemik kasalligik. rivojlanish xavfini oshiradi.

Yurakning ishemik kasalligining xavfli omilini bartaraf etsa bo'ladigan va bartaraf etib bo'lmaydigan xillari bor. Ko'krak qisishi (stenokardiya), miokard infarkti, insultni bartaraf etib bo'lmaydi; agar odam bu kasalliklar bilan bir marta og'rib o'tgan bo'lsa, yurakning ishemik kasalligik. rivojlanish xavfi ko'proq bo'ladi.

Yurakning ishemik kasalligining dastlabki bosqichi stenokardiya bo'lsa, miokard infarkti uning eng og'ir shaklidir. Stenokardiya bilan bemor uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo dastlabki davrida (birinchi uch kun) 20—30% bemorda miokard infarkti kuzatiladi. Miokard infarktining klinik belgilari, odatda, stenokardiya belgilariga o'xshash bo'lib, faqat og'riq uzoqroq va kuchliroq davom etadi. Bunda dastlabki soatlardayoq o'lim ro'y berishi yoki keyinchalik ham jiddiy asoratlar kuzatilishi mumkin. Infarktdan keyingi kardioskleroz, yurak aritmiyasi, yurak yetishmovchiligi aslida Yurakning ishemik kasalligik. ning asoratlari bo'lib, yuraktomir sistemasi kasalliklaridan bo'ladigan nogironlik va o'limning asosiy sabablaridir. Yurakning ishemik kasalligik. ga guman qilinganda darhol bemorni kasalxonaga yotqizish zarur. Kasallikning klinik belgilari (kasallik tarixi, bemor shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy ko'ruv), elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar va struktura elementlari (kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar) hamda qon tahlili, exokardiografiya va boshqalar tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qo'yiladi.



Yurakning ishemik kasalligini davolash terapevtik va jarrohlik usulida olib boriladi. Yurakning ishemik kasalligik. da parhezga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ovqatning umumiyligi miqdori va kaloriyasini cheklab, vaznni me'yorida saqlashga harakat qilish, badan tarbiya bilan shug'ullanish, mehnat va dam olishni uyg'unlashtirish, vrach ko'rsatmalariga bekamu ko'st amal qilish lozim. Chekishni tashlash shart. Yurakning ishemik kasalligik. ning oldini olish uchun gipertoniya kasalligi, qandli diabet va boshqalarni davolash zarur.





Eslatma!

Yurakning ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlar kardiolog shifokor nazoratida bo‘lishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Y.I.Arslnov, T.A.Nazarov , A.A. Bobomurodov Ichki kasalliklar
- 2.SH.M.Rahimov, F.K.Gaffarova , G.A. Ataxodjayeva Ichki kasalliklar
- 3.Qosimov E. Y. va b., Ichki kasalliklar propedevtikasi. Toshkent, 1996.
- 4.Internet saytlari:

<https://uz.m.wikipedia.org>

<http://navoidsenm.uz/yangiliklar>